



DESCRIPTION OF THE ISSUE OF FAMILY PEACE IN RELIGIOUS SOURCES

Feruza Khurshitovna Inagamova

Associate Professor, Department of Languages, Exact and Social Sciences

PhD in Philosophy

TMC Tashkent Institute

inagamovaferuza4@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: economic stability, demographic development, legal and regulatory framework, main directions of family development, spiritual and moral environment in families, family institution, international best practices.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: The current process of globalization in world development has led to changes in humanity's historical thinking and social life. In particular, this shift in thinking has prompted Western scholars to express the view that "the institution of the family is outdated" and that "entirely new values are necessary" for strengthening family relationships. This, in turn, has brought to the forefront the urgent task of identifying conceptual foundations for reinforcing the institution of the family. In this context, it is crucial today to conduct scientific and theoretical research and analysis on instilling the content and essence of values, which are considered the primary means of influencing family stability, into the minds and hearts of young people, as well as examining the transformation of these values.

DINIY MA'LUMOTLARDA OILA TINCHLIGI MUAMMOSINING TAVSIFI

Feruza Xurshitovna Inagamova

Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TMC Tashkent Instituti

inagamovaferuza4@gmail.com

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, demografik rivojlanish, huquqiy-me'yoriy

Annotatsiya: Jahon taraqqiyotning bugungi globallashuv jarayoni insoniyat

asos, oila taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit, oila instituti, xalqaro ilg'or tajriba.

tarixiy tafakkuri va ijtimoiy hayotida o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, tafakkurdagi bu o'zgarish G'arb olimlarining "oila instituti eskirdi", oilaviy munosabatlarini mustahkamlash uchun "mutlaq yangi qadriyatlar zarur" degan fikrlarni bildirishga undamoqda. Bu esa, oila institutini mustahkamlashning konseptual asoslarini izlab topish lozimligini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi. Bunda oilalar mustahkamligiga ta'sir qiluvchi asosiy vosita hisoblangan qadriyatlar mazmun va mohiyatini yoshlar ongi va qalbiga singdirish hamda uning transformatsiyasi masalasini ilmiy-nazariy tadqiq va tahlil etish bugungi kun uchun dolzarb hisoblanadi.

ОПИСАНИЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЕЙНОГО МИРА В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Феруза Хуриштовна Инагамова

Доцент кафедры языков, точных и социальных наук

Доктор философских наук (PhD)

Ташкентский институт ТМС

inagamovaferuza4@gmail.com

Ташкен, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономическая стабильность, демографическое развитие, нормативно-правовая база, основные направления развития семьи, духовно-нравственная среда в семьях, институт семьи, передовой международный опыт.

Аннотация: Современный процесс глобализации мирового развития привел к изменениям в историческом мышлении и общественной жизни человечества. В частности, это изменение мышления побуждает западных ученых высказывать мнение, что "институт семьи устарел", "абсолютно новые ценности необходимы для укрепления семейных отношений". Это, в свою очередь, поставило на повестку дня необходимость поиска концептуальных основ укрепления института семьи. При этом научно-теоретическое исследование и анализ вопроса внедрения в сознание и сердца молодежи содержания и сущности ценностей, которые считаются основным средством, влияющим на стабильность семьи, а также его трансформация, является актуальным на сегодняшний день.

Kirish. Mustaqillik xalqimiz, millatimiz taraqqiyoti uchun keng ufqlar ochib berdi. Bugun mamlakatimiz bor kuch-qudrati va imkoniyatini yuksak demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirgan. "Bunda birinchi galdagi vazifa jamiyat asosini tashkil qiluvchi jamiyatning eng kichik bo'g'ini hisoblangan oila institutini mustahkamlash, uning farovonligini ta'minlashni va har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan" iboratdir. Aynan ushbu masala O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" modelida alohida ahamiyat qaratiladi. "Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish".

"Oila va oilaviy munosabatlarning bosh subyektlarini erkak va ayol, er va xotin tashkil qilar ekan, etnoan'analarga xos xususiyatlar, avvalo ularning bir-birlariga, farzandlari, o'z burchlari, yon-atrofga munosabatlarida namoyon bo'ladi". Xo'sh, ushbu etnik xususiyatlarni nimalarga, qanday motivlarga qarab aniqlash, o'rganish mumkin? Yoki qanday motivlar er-xotin munosabatlarini yuzaga keltiradi?

Barcha tadqiqotchilar, ikki jinsning birlashib, ittifoq bo'lib yashashi negizida muhabbat, sevgi yotishi kerak, deb hisoblashadi. Ha, mazkur umuminsoniy, oliyjanob tuyg'u ikki jinsni bir-biriga intilib, bir-birini to'ldirib, boyitib yashashga undaydi. Shu maqsadda ular oila qurishadi, oila qurish bilan bog'liq murakkab, serharajat, goho mashmashali etnoan'analarni bajarishadi.

Biroq oila institutlarining shakllanish jarayonlariga diqqat bilan nazar tashlasak, er-xotin munosabatlari genezisida har doim ham muhabbat yotavermasligini ko'ramiz. Ular reproduktiv etnoan'analarni davom ettirish, mustaqil oila qurish, ota-ona istagini bajarish, o'zini boshqalardan kam emasligini ko'rsatish, orzu-havaslarga berilish tarzida keladi. Aynan ushbu istaklar va sa'y-harakatlarda etnoxususiyatlar ko'proq namoyon bo'ladi. Ammo oila instituti shakllanishi negizi yotadigan mehr-muhabbat tuyg'ulari yetakchi o'rinda turadi, shuning uchun er-xotin munosabatlaridagi bosh motiv ushbu tuyg'udir.

Platon "Davlat" asarida er-xotin, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni vujudga keltiruvchi bosh motiv sifatida muhabbatni tilga oladi. U Aristofan tilidan yozadi: "Mening nazarimda, kishilar muhabbatning haqiqiy kuchini bilishmaydi, agar bilganlarida unga buyuk saroylar tiklashar va buyuk qurbonliklar keltirishardi, eng avvalo shularni qilish o'rniga ular hech nima qilishmaydi. Axir Erot eng insonsevar xudo, u kishilarga yordam beradi va xastaliklarni davolaydi, bu esa insoniyat uchun katta baxtdir".

Jamiyatning yovuzlik va buzg'unchiliklardan xoli, tinch va obod bo'lishi, avvalo, oila tinchligiga bog'liq. Oiladagi xotirjamlik va uning mustahkamligi oila a'zolarining o'z mas'uliyatini to'g'ri anglashi va vijdonan bajarishi bilan belgilanadi.

Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida faylasuf, ijodkorlar oila va undagi qadriyatlar to'g'risida ko'plab fikrlar bildirishgan. Shu sababdan, bizning tadqiqotimiz yosh oilalar mustahkamligini, ularning jipsligini ta'minlashda qadriyatlar transformatsiyasining o'rnini aniqlashga qaratilganligi sababli, biz aynan oila, qadriyatlar, qadriyatlar transformatsiyasi malalariga oid tadqiqotlar bilan yaqindan tanishishimiz, ularda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilishimiz va yangicha qarashlar va g'oyalarni amaliyotga joriy qilishimiz lozim. Mavzu doirasini falsafada, ijtimoiy hayotda sezilarli iz qoldirgan ta'limotlar mavjud, ammo ularning turli ideologik tazyiqlar ta'sirida bo'lgan faylasuflarning, oilashunoslarning tor subyektiv yondashuvlari bois e'tibordan chekkada qolib kelgan shunday fikrlar, g'oyalar mavjudki, ularni tahlil qilish bir tomondan, an'analarga, qadriyatlarga, ma'naviy merosga obyektiv yondashishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, mavzuga doir kengroq qarashni, nuqtayi nazarlarni shakllantiradi.

Oila institutining ijtimoiy-tarixiy, huquqiy, sotsiodemografik shakllanishi borasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, uning etnologik, etnosotsial, aksiologik nuqtayi nazardan tahlili hali amalga oshirilmagan. To'g'ri, bunday tahlilga oid materiallar barcha tadqiqotlarda uchraydi, ammo ular ma'lum bir ilmiy, falsafiy konsepsiya nuqtayi nazaridan jamlanmagan va tahlil qilinmagan.

Diniy ta'limotlarda azaldan oila muqaddas sanalib, oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Oila qurish masalasi qadimgi davrlardan amal qilib kelinayotgan amallardan hisoblangan. Buni tarixiy diniy manba hisoblangan "Avesto" ta'limotida ko'rishimiz mumkin. "Avesto" xalqimizning antik davrlardagi oila va nikohga, oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishga oid tasavvurlari haqida qimmatli xabarlar beradi. Unda ayolning oiladagi roli alohida ajratib ko'rsatilmasa-da, oila qurish, sog'lom farzand tug'ish va o'stirishda ayolning o'рни katta ekani ta'kidlanadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "Avesto"da o'smirlar 15 yoshga to'lganda balog'atga yetgan va turmush qurish huquqiga ega hisoblanganlar. Lekin yoshlarning o'zboshimchalik qilib oila qurishlariga yo'l qo'yilmagan. Oila qurish jamoa, ota-ona izmida bo'lgan. Shu sababli jamoa va ota-onalar bo'lajak kelin va kuyovlarni tanlashda obdon o'ylab ish ko'rganlar. Yigitga har tomonlama mos bo'lgan qiz tanlanadi.

Avestoshunos Homidjon Homidovning ta'kidlashicha, "agar erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosilgan yoki u beliga dimo og'ir temir kamar bog'lab yurishga majbur etilgan. Yer yuzida inson zurriyotining ko'payishiga qarshi chiqib, turmush qurmay yurgan qiz qopga solinib, 25 qamchin kaltaklangan".

"Avesto"ning Vendidod qismida oila butunligini saqlash, nikoh tuzish tartiblari, nikohning bekor qilinishi sabablari va shartlari ancha batafsil bayon qilingan: - Ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do'st bir-birovi bilan nima xususda paymon bog'lasalar - biri ikkinchisining

xonadonidan o‘ziga xotin tanlasa, so‘zsiz uning talabi qondirilishi lozim” yoki: “Men bu so‘zlarim bilan kuyov tanlamoqchi bo‘lgan bolig‘a qizlarga va siz ikki tanga ham nasihat qilaman. Mening o‘gitlarimga quloq solinglar va uni haqiqatda xotirangizga jo qiling va o‘z dinlaringizni topinglarda, uni amalda joriy etinglar”.

Suqrot va Platon sevgini, muhabbatni er-xotinning oila bo‘lib birlashishi, qovushishi asosi, deb biladilar. Butun bo‘lish ushbu ittifoqni ilohiy qiladi. Oila qurish nafaqat jinslar uchun, avvalo “davlat uchun foydali” bo‘lmog‘i kerak. Oila shakllanishiga bunday kratologik yondashuv boshqa faylasuflar merosida uchramaydi. Aynan Platon o‘ttiz besh yoshigacha uylanmagan erkak, agar u oliy toifaga taalluqli bo‘lsa - yuz dirham, o‘rta toifaga oid bo‘lsa - yetmish, uchinchi toifadagisi – oltmish, to‘rtinchi toifadagisi - o‘ttiz dirham to‘lasin, degan g‘oyani ilgari surgan. Bu pullar nikoh ma‘budasi Gera g‘aznasiga tushishi zarur, deb qaragan. Nikoh tantanasiga tomonlar beshtadan eng yaqin kishilarini taklif qilishi mumkin, deb o‘rnatgan. Bu fikrlarda o‘sha davrlardagi an‘analar ko‘zga tashlanadi. Oila qurmaganlardan soliq olish davlatlar tizimiga kiritiladi, kimlarni nikoh kechasiga taklif etish tartibi shakllanadi. Nikohga kirganlarga butunga, ilohiyga yaqinlashganlar, farzandlari orqali umrboqiylikni qaror toptirganlar, deb qarash an‘anaga aylangan.

Platon nazarda tutgan tug‘ilishning ilohiyligi “Avesto”dagi “Fravashilar va Xvarno sharofati”ga aynandir. Agar etnoan‘analar nuqtayi nazaridan kelib chiqsak, qadimgi yunonlar er-xotin o‘rtasidagi ittifoqni, farzandlar tug‘ilishini qanday ilohiylashtirishga intilishgan bo‘lsa, Zardushtga e‘tiqod qo‘yganlar, shu jumladan, mintaqamiz xalqlari, o‘zbek oilalari ham bu ittifoqni e‘zozlaganlar. Falsafa fanlari doktori, professor Usmon Hosil (Qoraboev)ning yozishicha, “Avesto”da ajdodlarimizning falsafiy qarashlari, orzu-o‘ylari, e‘tiqodi aks etishi bilan bir qatorda odatlar, marosimlar, an‘analar va bayramlarga ham alohida e‘tibor berilgan. Ayniqsa uning Videvdat qismi bunday ma‘lumotlarga boy. Unda ozodlik, poklik rusumlari, o‘likni yerga qo‘mib uni harom qilgan odamni yoki va‘dabozni jazolash, davolash udumlari, it boqish va ularni ehtiyot qilish, ayollar bilan oynning qaysi kunlari munosabatda bo‘lish; soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, xo‘rozlar bilan bog‘liq irimlar, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash, oadmlarni balo-ofatlardan asrash va boshqa ko‘plab an‘analar, odatlar bayon etilgan”.

Mazkur an‘analar davr o‘tishi bilan transformatsiyalarga uchragan bo‘lsa-da, mohiyatan o‘zining gumanistik ahamiyatini yo‘qotmadi. O‘zbek xalqi ulardagi insonparvarlik, vatanparvarlik va hayotni ulug‘lash g‘oyalarini e‘zozlab keldi, ularga zid kelgan narsalardan voz kechishga intildi. Shuning uchun ham “Avesto”da barcha salbiy hodisalar, avvalo odat marosimlarga, an‘analarga itoat etilmaganligidan kelib chiqadi, degan g‘oya ilgari surilgan. Jumladan, unda: “marosimlarga e‘tiborsizlik oqibatida yer yuzida devlarning xuruji avj oladi”(devlar yovuzlik timsoli sifatida ko‘rsatiladi). Shuningdek, “Avesto”da: “Diniy rusum va marosimlarga

e'tiborsizlik oqibatida odamlarni bit deb ataluvchi xrafsastralar, ekinzorlarni, bug'doylarni nobud qiluvchi hashoratlar, uylarni, liboslarni kemiruvchi maxluqlar bosib ketadi", deb qayd etilgan.

"Avesto"da qayd etilishicha, o'sha davrlarda erkaklar bir nechta xotin olish huquqiga ega ekanlar. Erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan boshlab uylanishgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalarga bosh bo'lgan". Mazkur tartiblarda ayolning ijtimoiy funksiyalari batafsil bayon qilingan. Unga faqat farzand tug'ib beruvchi yoki "o'choqni asrovchi" deb emas, balki, jamoaning faol a'zosi, o'zini va qabilasini himoya qiluvchi, oila uchun zarur amallarni bajaruvchi, masalan, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, ro'zg'orni olib boruvchi shaxs sifatida qaralgan.

Bu tartiblarda matriarxat ta'siri saqlanib qolgani, shu bilan birga patriarxal munosabatlar qaror topgani ko'zga tashlanadi. Ayol qanchalik e'zozlanmasin, uning huquq va erkinliklari ana shu patriarxal munosabatlar doirasida bo'lishi tabiiy hol edi. Axura Mazda "Ayollar bachadonini Dunyodek keng etuvchi, Ikkiqatga madadkor, Tug'mog'ida xaloskor, Ko'ksin sutga to'ldirar", qudratga ega zot. U ayollar va oila homiysi sifatida barchaga baxt-saodat tilaydi. Uning namozlari, da'vat va tilaklari ibodatchilarning ko'p bo'lishiga, ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu amal bilan yurtini, elni, oilani farovon, baxtiyor qilishga qaratilgan.

Etnograf olimlarning fikricha, etnoan'analarni ham ular tarixiy-madaniy meros bo'lgani uchun emas, balki, ularning avvalo o'z mavqeyi va istaklariga muvofiq kelgani, oilada o'z avtoritetini o'rnatishga yordam bergani uchun qo'llab-quvvatlaydilar. Bu egoizm, takabburlik bo'lib tuyulishi mumkin, biroq erkak shunday avtokratik boshqarishsiz oilada birlik, osoyishtalik va farovonlikni ta'minlash qiyinligini biladi. Oila uchun kimning va qanday usulda boshqargani emas, avvalo uni asrashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarning qo'llanilishi muhimdir. Etnoan'analalar mana shu chora-tadbirlar va usullarning jamuljami, ifodasidir.

"Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosini – har tomonlama yetuk, barkamol, sog'lom shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil etar ekan, ajdodlarimizning 3 ming yil ilgari, bu a'molga yetishning yo'llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyatning poydevori hisoblanmish oila negiziga qo'yanlari yuksak tahsinga sazovordir" : "Menga barkamol va dinogoh vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla". "Qadimda yaratilib, asrlar osha sayqal topgan bu o'gitlar keyingi zamonlarda yangicha ta'limot ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchrab, ularning mazmunan yaqin variantlari paydo bo'lganini ko'rish mumkin. Jumladan, Kaykovus – Qobusnomada: Xotin olsang ulug' salog'lig' xonadondin xotin talab qilg'il... Xotin kamolg'a yetg'on, oqila bo'lg'on...bo'lsin" desa, Amir Temur o'z "Tuzuklarida: – O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim" deya ibratli mulohazalarini bayon etgan.

Oila qurish Islomdan oldin ham bo'lgan, lekin oilada erning va ayolning huquqlari va mas'uliyatlarini, oilaning mustahkamligini ta'minlaydigan omil sifatida qadriyatlar tom ma'noda Islom dinida ko'rsatib beriladi. Payg'ambarimiz Muhammad (sallallohu alayhi vasallam) ayol nomini ulug'lash, uning sha'nini ko'tarish, xotin-qizlarning huquqini belgilab berishda faqat Islom ummatigagina emas, balki kishilik jamiyatiga ibrat va namuna bo'lib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF81-son Farmoni.
3. Жамолов Д. (2020). Национальная культура и идентичность в контексте глобализации. 2020. В.108.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
6. Римский В. П. и др. Антропогенез, этногенез и происхождение сознания //Гуманитарные ведомости ТГПУ им. ЛН Толстого. – 2021. – №. 1 (37). – С. 19-35.
7. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilaning-rivojlanish-tarixi>
8. Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
9. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.
10. Harman H. A Woman's Work. – Penguin UK, 2017. – P. 416; Cheatham H. E., Stewart J. B. Black families: Interdisciplinary perspectives. – Routledge, 2017. – P. 402.; Шнейдер Л. Б. Семья: оглядываясь вперед. – М.: 2013. – С. 368.
11. Семя Книга для чтения.–М.: Политиздат, 1991;
12. Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. Ташкент, 2012.
13. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства. – Litres, 2022. – С. 250.
14. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.